



## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING O'RNI

**Abdumutalova Shirin Axmad qizi**

Nizomiy nomidagi TDPUning o'zbek tili va  
adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Quyida keltirilgan maqolada o'zbek tilshunosligidagi barqaror birikmalar bo'lmish frazeologizmlar, ularning tasnifi, ma'nodoshlik, shakldoshlik, qarama-qarshilik va ularning asosiy belgilari, so'z va iboraning bir-biridan farqi, ularning asosiy vazifalari va undan tashqari lingvistikamizda tutgan o'rni haqida bir qator fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Barqaror birikmalar, frazeologizm, ibora, sinonimlik xususiyati, zid ma'noli iboralar, shakldosh frazalar.

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon etish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'ladigan birikmalardan foydalanamiz.

Masalan: Salimjon oshig'i olcha yigit edi. Ushbu gapda „**oshig'i olcha**“ birikmasi qo'llanilyapti, ya'ni u omadli degan ma'noda.

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagicha:

1. *Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirilish;*



2. Ma'no butunligi;

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi

Shuningdek, barqaror birikmalar 3 guruhga bo'linadi:

-frazelogizmlar;

-maqol va matallar;

-aforizmlar;

*Frazelogiya* (yun. *phrasis* — ifoda, ibora va ...logiya)

1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (^Frazelogizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi;

2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

**IBORALAR-** ma'nosi bir so'zga teng keladigan gap yoki so'z birikmlari. Iboralar har doim ko'chma ma'noda bo'ladi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazelogizmlar deyiladi.

Masalan:

**bir yoqadan bosh chiqarmoq-** ahil bo'lib;

**aravani quruq olib qochadi-** maqtanchoq;

**og'zi qulog'iga yetgan-** xursand;

**qo'li kaltalik qildi-** imkoni yetmadi;

**qo'y og'zidan cho'p olmagan-** yuvosh;



**ko'z yumib ochguncha- tez;**

**xamirdan qil sug'urganday- oson kabi.**

**Iboralarning eng muhim belgilari**

- 1. Iboralar gap tarkibida yaxlit bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi.**
- 2. Ibora tarkibidagi so'zlar turg'un bog'lanishga asoslangan bo'ladi va nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Iboraga bitta so'z sifatida qaraladi va lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi.**
- 3. Iboralar nutqni ta'sirchan qiladi va doim ko'chma ma'noda qo'llaniladi.**
- 4. Iborani boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi.**
- 5. Ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimlik holatda bo'ladi.**
- 6. Ibora tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.**

**Ibora va so'zning bir-biridan farqi.**

- 1. So'zlar uslubiy bo'yoqli yoki bo'yoqsiz bo'ladi. Iboralar esa har doim bo'yoqdor. Ibora o'zi ifodalayotgan tushuncha bilan bitta so'zga teng, lekin bo'yoqdorligi sababli tenglik buziladi. Shuning uchun iborani so'z bilan har doim ham almashtirib bo'lmaydi.**
- 2. Ibora boshqa tilda aynan muqobilga ega emas. O'zlashma ibora bo'lmaydi.**
- 3. Iboralarni ko'p qo'llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi.**
- 4. Iboralar badiiy va so'zlashuv uslubida qo'llaniladi. Rasmiy va ilmiy uslublarda foydalanilmaydi.**

**Iboralar ma'nodoshlik, antonimlik va shakldoshlik xususiyatiga ega.**



Bir-biriga ma'nosi yaqin iboralar *ma'nodosh iboralar* ( *frazeologik sinonimlar*) deyiladi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni kasb etayotgan bo'lishi kerak. Busiz sinonimlik haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolilik deb tushunmaslik kerak. Har bir sinonim shu sinonimik uya uchun umumiy ma'nodan tashqari o'ziga xos ma'no qirrasiga ham ega bo'ladi. Masalan, yer bilan yakson bo'lmoq - yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko'kka sovurmoq- kuli ko'kka sovruldi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi (butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq). Bu sinonimlar ma'no qirrasida farq qiladi; ikkinchisida ma'no biroz kuchliroq.

Frazeologik sinonimlarni belgilalashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, „juda oz, jinday, qittay" ma'nolarini bildiruvchi „bir shingil, bir og'iz, bir chimdim sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi:

bir og'iz - so'zlash a'zosi,

bir shingil- bir bosh uzumning qismi,

bir chimdim- chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun ibora tarkibidagi so'zga e'tibor qaratishimiz lozim. Ibora tarkibida turli so'zlar qatnashgan bo'lsa, ular o'zari sinonim iboralar bo'laveradi. Masalan, „butun tafsiloti bilan - mayda chuydasigacha " ma'nosini bildiradigan ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha iboralari bilan sinonim bo'ladi, ular tarkibida umumiy so'z yo'q.

Sinonim iboralarning leksik tarkibida biror qismi ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bundagi boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan qismlari o'zaro sinonim bo'lmasligi kerak. Masalan, jonini hovuchlab va yuragini hovuchlab iboralari - **sinonim**. Bu iboralar tarkibida hovuchlab so'zi har ikkalasida ham qatnashgan- bir leksik komponenti bir xil so'z bo'lgan, lekin *jonini* va *yuragini* so'zlari - ikkinchi leksik komponenti boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalanib, o'zaro sinonim emas. Ko'ngliga



tugmoq, yuragiga tugmoq o'zaro bir iboraning variantlari hisoblanadi, ular sinonim iboralar hisoblanmaydi, chunki bir leksik komponenti ayni shu so'zning o'zi (tugmoq), ikkinchi leksik komponentlari esa o'zaro sinonim (ko'ngil-yuragi).

#### **SINONIM IBORALARDAN NAMUNALAR:**

-boshi ko'kka yetmoq, qo'yi mingga yetmoq, og'zining tanobi qochmoq- *behad sevinmoq*;

-bag'ri tosh, ko'ngli qattiq- *bemehr*;

-bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir tan-bir jon bo'lmoq- *hamjihat bo'lish*;

-zoye ketmoq; shamolga uchmoq- *befoyda sarflamoq*;

-ich-etini yemoq, o'z yog'iga o'zi qovrulmoq- *ruhan azoblanmoq*;

Agar so'z va ibora ma'nodosh bo'lsa, leksik-frazeologik sinonimlar deb ataladi. Masalan, yog' tushsa yalagudek- toza

ilonning yog'ini yalagan- ayyor kabi.

#### **ANTONIM IBORALAR.**

Qarama-qarshi ma'noli iboralar zid ma'noli iboralar (frazeologik antonimlar) deb ataladi. Masalan, dunyoga kelmoq-dunyodan ketmoq; yerga ura ko'kka sachraydi- qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi. Agar so'z va ibora zid ma'noli bo'lsa, ular **leksik-frazeologik antonimlar** deb ataladi. Masalan: qimmat-suv tekin, baxil-qo'li ochiq

#### **ANTONIM IBORALARGA MISOLLAR:**

-gapida turmoq;      -so'zidan qaytmoq;

-yerga urmoq;      -ko'kka ko'tarmoq;

-ichi qora;      - oqko'ngil;



-tili uzun;                      -tili qisqa;

### **IBORALARDA OMONIMLIK XUSUSIYATLARI.**

Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi- omonimlik frazeologik birliklarda ham mavjud. Shakli bir xil, ma'nosi har xil iboralar **shakldosh iboralar** (*frazeologik omonimlar*) deyiladi. Masalan: boshga ko'tarmoq I - e'zozlamoq;

boshga ko'tarmoq II - shovqin solmoq kabi.

**Bosh ko'tarmoq I** - qaramoq, qilib turgan ishini to'xtatmoq;

**Bosh ko'tarmoq II** - unib chiqmoq;

**Dam bermoq I** - havo oqimini kuch bilan haydab kirmoq;

**Dam bermoq II** - istirohat qilishga imkon bermoq;

**Joni chiqmoq I** - o'lmoq;

**Joni chiqmoq II** - qattiq g'azablanmoq;

**O'g'ziga olmaslik I** - umuman iste'mol qilmaslik;

**O'g'ziga olmaslik II** - kimnidir umuman gapirmaslik;

Ayrim iboralar so'z birikmalari bilan ham omonimlik hosil qiladi. Masalan:

Ota-bobolarning nasihatini esdan chiqarmaslikni o'g'lining qulog'iga quydi- **ibora**; Shifokor dorini bolani qulog'iga quydi-**so'z birikmasi**.

Ona uxlash uchun ko'z yumdi- **so'z birikmasi**; Yaqin bir oy ichida dunyodan ko'z yumdi- **ibora**;

Bunday birliklar o'z ma'nosida qo'llansa- **so'z birikmasi**, ko'chma ma'noda qo'llansa- **ibora** hisoblanadi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologizmlar tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birlikdir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namoyon bo'ladi. Ular nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli va insonga zavq bag'ishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami „Yosh kuch" Toshkent-2021
2. Muxtasar grammatika „Hodiyev Education" Toshkent-2021
3. O'zbek tili frazeologik lug'ati" "O'qituvchi nashriyoti" Toshkent-1978
4. Nargiza Erkaboyeva- O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami
5. Jasur Usmonov, Omon, Nurmurodov- Muxtasar grammatika
6. B.Yo'doshev, A.Mamatov va boshqalar